

BAAS partiyasi va uning arab davlatlari milliy mustaqilligini mustahkamlashdagi o'рни

Ikkinchi jahon urushidan keyin arab davlatlarida sotsiologik g'oyalar ostida milliy mustaqillik uchun kurashuvchi guruhlar soni oshib bordi. Bu singari guruhlarida ichida arab sotsiologik o'yg'onish partiyasini ta'siri alohida edi. Mazkur guruh keyinchalik Iroq va Suriya davlatlarida hukmron siyosiy partiyalar maqomiga erishdi.

1954 -yildan boshlab Iroqdagi siyosiy kuchlar ichida Arab sotsialistik uyg'onish partiyasining (BAAS) milliy bo'limi kuchayib bordi. Baaschilar keng xalq ommasi uchun tushunarli bo'lgan ijtimoiy islohotlar o'tkazish shiori bilan chiqdilar. Ayniqsa mayda burjuaziya va arab millatchiligi tarafdorlari ichida bu partiya keng qo'llab-quvvatlandi¹.

II jahon urushidan keyin Iroqda 1930 -yilgi Ingliz-Iroq bitimini bekor qilish uchun harakat kuchaydi. Ichki reaksiya Angliya yordamida bu harakatni sindirishga intildi. 1948 -yil yanvarda Yangi Iroq-Angliya bitimi imzolandi, unga ko'ra Angliya Iroqni okkupatsiya qilishni to'xtatdi, lekin Iroqning qaram holati saqlab qolindi. Inglizlar avvalgidek Iroqning armiyasi, tashqi siyosati va shunga soxalar o'xshashlar ustidan o'z nazoratini saqlab qoldi.

Shartnomadan norozilik Iroqda milliy va antimonarxistik qo'zg'olonning boshlanib ketishiga olib keldi. Lekin Iroqning 1948-1949 -yillarda Falastin urushiga tortilishi mamlakatda harbiy holat o'rnatilishiga olib keldi, mamlakatda sobiq bosh vazir Nuriy Said boshchiligida harbiy diktatura o'rnatildi².

1954 - yil avgustda Iroq reaksiyasi davlat to'ntarilishini amalga oshirdi. Parlament tarqatib yuborildi, barcha siyosiy partiyalar taqiqlandi. Hukumat tepasiga yana Nuriy Said keldi. Qamoqqa olishlar ko'paydi, tashkilotlarda tozalashlar amalga oshirildi. Nuriy Said diktaturasi yer egalarining manfaatlarini ko'zlab ish olib bordi.

¹ Сафади М. Хизб аль-Баас. Ма'сату-л-маувлид, ма'сату-л-нихай. Бейрут, 1984.

² Аль-Айсами Ш. Хизб аль-баас аль-араби аль-иштираки. Мархалат аль- арабийя ат-тахсисийя (1940–1949). Ч. 1. Бейрут, 1975.

Irrigatsiya inshootlari qurilishiga asosiy e'tibor qaratildi. Tigr, Yevfrat daryolarida to'g'onlar qurilib, suv bosish xavfi bartaraf etildi. Sug'oriladigan yerlar 1/3 qismga ko'paydi. Lekin qishloq xo'jaligi rivojlanishi past darajada bo'lib, hosildorlik past edi. Yersiz dehqonlarga er berish masalasi hal qilinmadi. 1958 -yilda yirik pomeschiklar qo'lida ishlov beriladigan erlarning 85-90 % i to'plangan edi.

Iroqning 1954-1958 -yillardagi tashqi siyosati ingliz-amerika manfaatlariga bo'ysundirilgan edi. Iroqning g'arb mamlakatlari bilan yaqinlashuvi uning arab dunyosida yakkalanib qolishiga olib keldi. Iroq davlati tashqi siyosatda qo'shni musulmon davlatlaridagi reaksiya tartibotlar bilan yaqinlashish yo'lidan bordi. 1955 -yilda Angliyaning faol ishtirokida Bag'dodda Iroq, Eron, Turkiya va Pokistondan iborat Bag'dod pakti nomli harbiy-siyosiy blok tuzildi. 1930 -yildagi ingliz-iroq bitimi o'rniga 1955 -yilda tuzilgan Yangi bitimga binoan Angliya o'zining Iroq ustidan harbiy-siyosiy nazoratini saqlab qoldi va uni o'zining Yaqin Sharqdagi bosqinchilik harakatlarida ishtirok etishga majbur qilib, Iroq jamiyatidagi norozilikni kuchayishiga sabab bo'ldi.

Iroqdagi harbiy-monarxistik tartibot mamlakat ichida o'z obro'sini batamom yo'qotdi. Ishchilar, dehqonlar, ziyolilar, milliy va mayda burjuaziya unga qarshi birlashdilar. Harbiy tartibot o'zining asosiy tayanchi bo'lgan armiyani ham nazorat qilolmay qoldi. 1956 -yilda armiyada yashirin inqilobiy tashkilot bo'lgan "Ozod zobitlar" tashkilotining bo'limlari tuzildi. 1957 -yil fevralida bir qancha siyosiy partiyalarning birlashishi natijasida Milliy Birlik Fronti (MBF) tuzildi. Bu front o'z dasturida monarxiyani aqdarish, mamlakatni Bag'dod paktiga a'zolikdan chiqarish, demokratik erkinliklarni joriy qilish va shunga o'xshash g'oyalarni ilgari surdi.

1958 -yil 14 iyulda Iroq armiyasining polkovniklar Karim Qosim va Salom Orif boshchiligidagi ikki brigadasi Bag'dodga kirib bordilar hamda aholining qo'llab-quvvatlashi yordamida poytaxtni egallab, qirol saroyini qo'lga kiritdilar. qirol Faysal II, Nuriy Said va boshqa arboblari o'ldirildi. Iroq respublika deb e'lon qilindi.

Qosim boshchiligidagi respublika hukumati Vaqtli konstitutsiyani joriy qilib, ommaviy tashkilotlar faoliyatini legallashtirdi, yirik yer

egaligini cheklovchi agrar islohotni amalga oshirdi, chet el sarmoyalarining mavqeyini qisqartirdi³.

Tashqi siyosat soxasida ham bir qator muhim tadbirlar amalga oshirildi. 1959 -yil martida Iroqning Angliya va AQSh bilan tuzilgan teng ququqli bo'lmagan shartnomalari bekor qilindi, mamlakat Bag'dod paktidan chiqdi, Angliyaning Iroqdagi harbiy bazalari tugatildi, SSSR bilan iqtisodiy va siyosiy qamkorlik o'rnatildi.

Lekin 1959 -yil o'rtalaridan boshlab Qosimning siyosatida ikki yoqlamalik holatlari ko'rina boshladi. Bir tomondan uning hukumati mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish rejalarini amalga oshirishni davom ettirdi, ikkinchi tomondan esa demokratik tashkilotlarga qarshi qatag'on qilishlar kuchaya boshladi. Mamlakatda Qosimning shaxsiy hokimiyati o'rnatildi.

1963 -yil 8 fevralda Iroqda navbatdagi davlat to'ntarishi bo'lib o'tdi. Hokimyat tepasiga kelgan Salom Orifning harbiy guruhi va BAAS partiyasining rahbariyati Qosimni va uning tarafdorlarini qatl qildilar, lekin o'zlari ularning siyosiy yo'lini davom qildirdilar. Salom Orif 1966 -yilda aviatsiya halokati natijasida halok bo'lgach uning ukasi Rahmon Orif prezident bo'ldi, u barcha hokimyatni o'z qo'lida to'plab, BAAS rahbarlarini hokimyatdan chetlashtirdi. R.Orif boshchiligidagi hukmron doiralar xalq ichida ijtimoiy tayanchga ega bo'lmaganligi sababli armiya va davlat amaldorlarining yuqori tabaqasiga tayanishga harakat qildilar. Hukumat pomeshchik-burjuaziya tabaqasi bilan mehnatkashlar orasidagi munosabatlarni murosaga kelishtirishga harakat qildi ⁴ . Lekin mamlakatdagi siyosiy beqarorlik inqirozni chuqurlashishiga olib keldi. BAAS partiyasi rahbarlari o'zlarining armiyadagi tarafdorlariga tayanib, 1968 -yil 17 iyulda hokimyatni o'z qo'llariga oldilar. Baaschilar raxbari general Hasan al Bakr prezident bo'ldi, uning atrofidagi guruhda partiya faoli, yosh zobit Saddam Husayn aloqida ajralib turardi.

Iroq 1970-yil 16-iyulda xalq demokratik respublikasi deb e'lon qilindi. Iroqdagi barcha siyosiy partiyalar va guruhlarining o'zaro hamkorligi oldinda turgan eng muhim vazifa deb e'lon qilindi.

³ Сафади М. Хизб аль-Баас. Ма'сату-л-маувлид, ма'сату-л-нихай. Бейрут, 1984.

⁴ Аль-Айсами Ш. Хизб аль-баас аль-араби аль-иштираки. Мархалат аль- арабийя ат-тахсисийя (1940–1949). Ч. 1. Бейрут, 1975.

Yangi hokimyat jamiyat uchun juda muhim bo'lgan iqtisodiy siyosatni amalga oshirdi. 1972-1975-yillar davomida mamlakatning barcha neft boyliklari milliyalashtirildi. Bu bilan chet el sarmoyasi mavqeiga jiddiy zarba berildi. Mamlakat janubida milliy iqtisodiyot asosi bo'lgan neft sanoati rivojlana boshladi. Bu davrda ilgari e'lon qilingan agrar islohotlar yanada chuqurlashtirildi, zamindorlarga musodara qilingan erlari uchun tovon to'lash bekor qilindi. 1970-yildagi qonun bo'yicha zamindorlarning er maydonlari xajmi cheklab qo'yildi. Dehqon xo'jaliklarini kooperativlashtirish tadbirlari kuchaytirildi.

Baaschilar 70--yillarda mamlakatdagi barqarorlikga tahdid solib turgan kurdlar masalasida ancha muvaffaqiyatlarga erishdilar. Kurd isyonchilari tor-mor etildi va kurdlar yashaydigan hududlar ustidan hukumat qo'shinining nazorati o'rnatildi. Iroq Kurdistoniga muhtoriyat maqomining berilishi vaqtincha murosaga kelishish uchun yo'l ochib berdi. Lekin Baaschilar muholifatdagi kuchlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borib, o'zlarining siyosiy obro'-e'tiborlarini ko'targan bo'lishlariga qaramasdan, partiya ichida hokimyat uchun kurash kuchaydi.

1979 -yil 17-iyulda partiya ichidagi to'ntarish oqibatida Hasan al Bakr armiya va davlatdagi barcha lavozimlardan olib tashlandi. Hokimyat Saddam Husayn qo'lga o'tdi, u bir vaqtning o'zida ham prezident, bosh vazir, oliy bosh qo'mondon va BAAS partiyasining Bosh kotibi lavozimlarini o'z qo'lida to'pladi va bu bilan mutlaq hokimyatga ega bo'ldi. Partiya va uning rahbari mamlakatda o'zining mafkuraviy, siyosiy va ma'muriy nazoratini o'rnatishni asosiy vazifa qilib qo'ydi. Favqulodda holat joriy qilinib, asosiy muholifatchi kuch bo'lgan Iroq kommunistik partiyasi tor-mor etildi va yakka partiyali totalitar tuzum o'rnatildi⁵.

S.Husayn Yaqin Sharqda ro'y bergan siyosiy o'zgarishlarni hisobga olib (Kemp-Devid bitimi, Erondagi islom inqilobi), Iroqning mintaqada tutgan alohida o'rni haqidagi g'oyalarni targ'ib qilishni kuchaytidi va arablar dunyosida yetakchilik rolini da'vo qilib chiqa boshladi.

S.Husayn Eronning islom inqilobi natijasida kuchsizlanib qolganidan foydalanib, 1980-yil 22-sentyabrda unga qarshi urush boshladi. Urush baxonasi sifatida Eronning 1975-yildagi shartnomaga binoan bir qator chegaraoldi hududlarini Iroqqa bermagani deb ko'rsatildi. Lekin bu aslida

⁵ Сафадн М. Хнзб аль-Баас. Ма'сату-л-маувлнд, ма'сату-л-ннхай. Бейрут, 1984.

islom dinidagi ikki asosiy oqim Iroqdagi sunniylar bilan Erondagi shialar o'rtasidagi siyosiy tizim va diniy mafkuralar o'rtasidagi dushmanlikning oqibati edi. Buning ustiga bu ikki davlat rahbarlari ham Fors ko'rfazi hududida o'z gegemonligini o'rnatishga intilardi.

Iroqda sodir bo'layotgan mazkur jarayonlar qo'shni arab davlatlarida ham o'z aksini namoyon qildi. Tarixiy rivojlanish xususiyatlariga ko'ra umumiylik jihatlari ko'p bo'lgan Suriyada ham arab sotsiolistik g'oyalari keng tarqala boshlangan edi. Natijada 1963 yilda hokimyat tepasiga davlat to'ntarishi oqibatida BAAS partiyasi keldi. Qiziqarlisi shudagiki, Iroqdagi BAAS partiyasi mahalliy vakillari hokimyatni o'sha yilning fevral oyida egallab oldi⁶. Davlat to'ntarishining muvaffaqiyatini alaviylarni druz ofitserlari, ismoiliylar va nasroniy siyosatchilarning qo'llab quvvatlovi olib keldi. Davlat to'ntarishidan so'ng partiya a'zo bo'lishga yo'naltirilgan qat'iy talablar ancha yengillashtirilib, tez orada partiya a'zolari soni besh barobarga ko'payib ketdi. Partiya a'zoliciga birinchi navbatda alaviylar vakillari bo'lgan aholining past tabaqa vakillari kira boshladi va bu bilan partiyaning mutlaq soni ko'pligini ta'minlab berdi. BAAS tez orada yakka partiyaviylik tizimi hukmronligini o'rnatdi. Bu turdagi boshqaruv shakllarida siyosiy kurash partiya ichida olib borilib, partiya muxolifat bo'lgan kuchlar esa faqatgina jamiyatning past qatlamlaridagina ko'zga tashlanishi mumkin, ya'ni diniy va ma'daniy qatlamlarda. BAAS ichida kurash asosan o'ng va so'l qanotlar o'rtasida borar edi. Avval boshda sunniy burjua va katta yer egalari qatlamlaridan tashkil topgan o'ng qanot vakillari ustunlik qilar edi. Davlatni sunniy Amin Haviz boshqarar, bosh vazir esa Salax ad – Din Bittar edi. O'zining “o'ng” qanot vakilliligi qaramasdan o'zining oldindan boshlangan yirik sanoat milliylashtirish va yirik yer egalardan yerlarni tortib olib dehqonlarga bo'lib berish qishloq xo'jaligini islohlashtirish siyosatini davom ettirar edi. Tashqi siyosat Sovet Ittifoqiga qaratilgan bo'lib, u orqali ulkan harbiy yordam qabul qilar edi. 1966 yilda paydo bo'lgan siyosiy kelishmovchiliklar natijasida Saloh Jadid va Hafiz Asad boshchiligidagi so'l qanot vakillari tomonidan hokimyat to'ntarishi amalga oshirildi. BAAS partiyasi “Birlik, mustaqillik va

⁶ Дандашлы М. Хизб аль-баас аль-арабий аль-иштиракий: аль-иди улуд-жийя ва-т-тарих ас-сийаси (1940–1963). Аль-джужу аль-аввал, 1979

sotsializm” shiori ostida ish boshladi. BAAS partiya asoschilari Afloq va Bittor Iqoqga qochib kettilar. Armiya va partiya qatoridagi vakillarning ko’pchiligini alaviylar tashkil etganligi sababli, ularning yarim asrlik boshqaruvi alaviylar boshqaruvi deb ham ataladi. Armiya va partiya alaviy vakillarining katta qismi “sirga kiritilmaganlar” toifasiga kirganligi sababli, hokimyat tepasiga diniy guruh emas, balki ma’lum ijtimoiy guruh kelgan edi. Davlatni amalda Solih Jadid boshqarib, iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtira boshladi. U g’ayri g’oyaviy kuchlarni qatag’on qiluvchi kuchli havfsizlik organini yaratdi. Armiya BAAS qatorlariga kiritildi. Ammo shu vaqtning o’zida partiya ichida Jadidga nisbatan Hofiz Asad boshchiligidagi muholifat kuch paydo bo’lgan edi. 1960 yillarning oxiriga kelib, Jadid va Asad o’rtasida hokimyat uchun ochiqdan – ochiq kurash boshlandi. Shu davrning o’zida Suriya SSSR bilan yaqinlashish yo’lidan bora boshladi.

1972-yilda Sotsial komunistik partiyasida bo’linish yuz berdi. X.Bagdash boshchiligidagi fraksiya X.Asad boshchiligidagi hukumatga hamkorlik uchun qo’shildi. R.Turki (SKP-siyosiy buyro)si o’z muxolifatligini e’lon qildi. Keyinchalik uning rahbarlari hibsga olindi. M.Yusuf (SKP bazaviy tashkilotlar)ning yana bir firaksiyasi bor edi. Ular ham PNF (ruscha nomlanishi)da ishtrok etishdan bosh tortilar. 1986-yilda SKPning hukumat tarafdorlar fraksiyadan ajraldi. Uning ichida X.Bagdash bilan M.Yusuf guuhlari ham bor edi(ular partiyaning yosh kadrlariga tayanganlar). PNFning bir qismi bo’lgan ikki tashkilot o’rtasida o’zaro muxolifatlik yo’q edi. Arab satsialistlarning qo’l ostida bo’lgan arablarning satsialistik harakati(DAS) 1950-yida A.Xauraniy boshchiligidagi arab satsialistik partiyasi (ASP) sifatida tashkil etilgan. BAAS tashkiloti oddiy ishchilar va qishloq mehnatkashlarning ko’magiga tayanib, arablarning birligiga va “Arab satsializimi”ga erishishiga chaqirdi. 1954-yil BAAS va ASP birlashtirildi. 1962-yilda Suriya Misr bilan ittifoqdan ajralgach, A.Xauraniy va uning tarafdorlari PASVdan chiqarildi. Chunki ittifoqni qayta tiklatishga qaratilgan harakat rad etilgan edi. Keyinchalik tashkilot bir qancha fraksiyalarga bo’linib, uning ba’zilar PNF va hukumatga qo’shildi⁷.

⁷ Сафади М. Хизб аль-Баас. Ма’сату-л-маувлид, ма’сату-л-нихай. Бейрут, 1984.

Sotsialistik ittifoq (Union PSU) partiyasi PNP tarkibiga kiruvchi nasroniy partiya bo'lib, uning dastur parametrlarida ACC va BAAS ga yaqin edi. Sotsialistik ittifoq Demokratik partiyasi (SDP) - PFPning bir qismi bo'lgan, Rossiyaga qarshi bo'lmagan partiya edi. Suriya Milliy Sotsialistik Partiyasi (SSSR) 1932 yilda Livanda Liviyada fashizmning mafkurasi va tashkiliy shakllarining ta'sirini yashirgan maxfiy tashkilot sifatida tashkil etilgan. Bu partiya Suriya, Livan, Iroq, Iordaniya, Falastin va Quvaytni qamrab oladigan "Buyuk Suriya" davlatini yaratish maqsadini e'lon qildi⁸. SNSPning asosiy kuchlari Livanda bo'lgan, u erda katta ta'sir ko'rsatgan, Ikkinchi jahon urushidan keyin harbiy kuchlarini yaratgan va ko'plab davlat to'ntarishlari harakatlarida ishtirok etgan. 1960 - yillarning boshlarida partiya etakchiligi nuqtai nazaridan ma'lum bir evolyutsiya bor edi⁹. Umuman, o'ng qanot nuqtai nazaridan markisistik va panarabiy nuqtai nazarlarini o'ziga asos qilib oldi. Umuman, o'ng qanot nuqtai nazaridan markistik va panarabiy nutqaa'iy nazarlarini o'ziga asos qilib oldi. Yigirmanchi asrning oxirida partiya fraksiyasining bir qismi Livanda hukumat bilan aloqa bog'lab ular bilan hamkorlik yo'liga o'tdi.

⁸ Аль-Айсами Ш. Хизб аль-баас аль-араби аль-иштираки. Мархалат аль-арабийя ат-тахсисийя (1940–1949). Ч. 1. Бейрут, 1975.

⁹ Дандашлы М. Хизб аль-баас аль-арабий аль-иштиракий: аль-иди улуд-жийя ва-т-тарих ас-сийаси (1940–1963). Аль-джужу аль-аввал, 1979